

## TYUTOR PEDAGOGIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

**Temirov Jahongir Yorqin o'g'li**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tyutori

[jahongirtemirov174@gmail.com](mailto:jahongirtemirov174@gmail.com)

+998900272292

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

**Toshpo'latov Abdulaziz Quvondiq o'g'li**

Pedagogika fakulteti Pedagogika va psixologiya yo'nalishi

21/2-guruh 3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10042898>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tyutor pedagogic faoliyatini tashkil etishning psixologik asoslari, talabalar bilan muloqot jarayoni va ular bilan ishlash ko'nikmalari haqida yoritib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** tyutor, faoliyat, ta'lim, tarbiya, odob-axloq, pedagogik takt, ijodkorlik, tashkilotchilik, sabr, bag'rikenglik, qat'iyyat, intizom, psixologiya, kasbiy faoliyat.

Talabalarning samarali ta'lim olishi, manaviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lishi bevosita tyutor hodimining tarbiya jarayonlarini boshqarishiga bog'liq. Chunki Tyutor yangi O'zbekistonning yangi o'qituvchisiga pedagogic faoliyatni sevish, dars bo'tish mahoratini kun sayin emas, soat sayin oshirib boorish, o'z ustida qunt bilan mehnat qilish, ta'lim- tarbiyaning zamon talablariga mos bo'lishiga intilish, mehnatsevarlik, haqiqatgo'ylik, ifodali va hissiyotli nutq, pedagogik takt, ijodkorlik, tashkilotchilik, sabr, bag'rikenglik, qat'iyyat, intizom kabi g'oyat zarur bo'lgan odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashini o'zgartirishi, vazifalarni va mahoratni rivojlantirish, jahonda bo'layotgan o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etish ko'nikmalarini shakllantirish va davr talablari bilan uyg'unlashtira olishi o'zligini anglash. " Biz kimmiz , qanday ulug' zotlarning avlodimiz" degan g'oya va g'ururni ularning qalbida doimo aks sado berishiga ahamiyat qilishi, nafaqatgina ularning bilimlarini oshirib qolmay, balki ularda ong, tafakkur, madaniyat, mas'uliyat, munosabat taraqqiyot tushunchalarini rivojlantiradi. Buning uchun tyutor tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda yangi usullarini amaliyotga tatbiq etishi talabalarda fidoyilik, o'z ustida tinimsiz ishlash, kasbga muhabbat, kundalik hayotida, har bir qadamida duch keladigan masalalarga yordam berish ularning aqlini doimiy charxlash, o'zini - o'zini tan olish, ishonch, his tuyg'ularini shakllantirish , o'ziga - o'zi sog'lom baho berish, tashqi faoliyatini o'zgartirishi, yangilash kabilar muhim o'rin tutadi. Talabalarga tyutor o'qituvchi qadri nimaligini tushunib yetishda ustozlarining fikrlarini o'zlashtirish, ular mehriга to'yib, kelajakda o'z kasbida ishlashini orzu qilish xususiyatlarini rivojlantiradi. Ana shu orzularni amalga oshirishda tyutor talaba faoliyatida o'z kasbiga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishi qiyin bo'ladi. Odatda o'qituvchilik kasbiga kirib kelishida turli bilimlar talabalarga ta'sir qilishni boshlaydi. Talabalik faoliyatida uchraydigan tushkunliklardan chiqib ketish yo'lini bilmaslik natijasida o'z kasbiga nisbatan ko'ngil qolish holatlari vujudga keladi. Ushbu holatlarni bartaraf etishda tyutor talabalarda o'ziga ahamiyat berish, o'z kasbiga to'la tayyor bo'lish, o'ziga bo'lgan munosabatni hamisha nazorat qilib borish, o'qituvchilik faoliyatida ro'y beradigan tushkunliklar, ko'ngilsizliklar, mag'lubiyat va muammolarni bartaraf etish qobiliyatini rivojlantirish, sog'lom turmush tarziga rioya qilish, o'ziga yuqori baho berishni o'rgatish, ongini o'zgartirish, o'zi haqidagi

ijobiy, ruhlantiruvchi, xursandchilik baxsh etadigan fikrlarga yo'naltirish, ba'zi hollarda orzulari, tasavvurlarining qanday bo'lishidan qat'iy nazar, haqmi – nohaqmi barchasini qabul qilishini o'rganishga tayyorlash muhim o'rin tutadi.

Hozirgi vaqtda pedagogik psixologiya olimlari tomonidan o'rganiladigan va hal qilinadigan muammolar doirasi sezilarli darajada kengayib bormoqda. Bugungi kunda nafaqat umuminsoniy bilim, ko'nikma va malakalarning yaxlit tizimini shakllantirish, balki kasbiy faoliyatni malakali va mohirona amalga oshirishga tayyor va qodir mutaxassisni shakllantirish ham ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Bu, birinchi navbatda, zamonaviy ijtimoiy o'zgarishlarning dinamikligi va ta'limning innovatsiya va o'zgaruvchanlik yo'nalishida rivojlanishi bilan bog'liq. Davlat buyurtmasi aniq belgilashga qaratilgan ta'lim mazmunidagi ustuvor vazifalarni har bir shaxsdan zamonaviy davlatda talab qilinadigan fazilatlar va ta'lim salohiyatini anglashi lozim. Natijada, ta'lim muassasalarining shtat ro'yxatiga talabalarining shaxsiy ehtiyojlari bo'yicha ishlarni o'z ichiga olgan mutaxassislarni kiritish zarurati paydo bo'ldi. Aynan Shu sababli, zamonaviy ta'limni isloh qilishning sezilarli tendentsiyalaridan biri yangi ta'lim kasblarining paydo bo'lishi bilan bog'liq. Shunday qilib, ta'lim muassasalari xodimlarida yangi lavozim - tyutor joriy etildi.

Shaxsning hamkorlik faoliyatini ta'minlovchi asosiy mexanizm ularning munosabatlarini qanday tarzda tashkil etilganligi, muloqot o'rnatish malakasi, muloqot takti, munosabatlarning insonparvarlik xususiyatiga egaligi, muomalaga qiziqishlari va boshqa jihatlar bilan ham belgilanadi. Tadqiqotimizda hozirgi zamon Oliy ta'lim muassasasi tyutori bilan talabalarining muloqot maromiga ularning hamkorligini shartlovchi omillardan biri sifatida tan olish mumkin. Biz tadqiqotimizda tyutor bilan talabalar hamkorlik faoliyatida ustozning bu munosabatlardagi umumiy timsolini yoritishga imkon beradigan T.Liri metodikasidan foydalandik. Ushbu metodikadan foydalanishimizdan maqsad tyutor bilan talabalarining hamkorlik faoliyatida ustoz shaxsining roli va ularning o'zaro munosabatidagi yetakchi omillarning ahamiyatini aniqlashdan iborat edi. Shuni hisobga olib, biz metodikaning tavsifidan o'rin olgan yetakchi omillar yordamida pedagogika Oliy ta'lim muassasasi sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlar xususiyatlarini o'rgandik. Biz tyutorning talabalar bilan muloqotga kirishishga qobiliyatligini, ularning munosabat o'rnatish imkoniyatlarini baholashga harakat qildik. Muloqot maromi va taktiga ko'ra, tyutor talabalariga nisbatan yuqori darajadagi muloqot malakasiga ega bo'lishi lozimdir.

Tyutorning talabalar bilan ta'lim-tarbiya jarayonida o'zaro munosabatlarining keng tarqalgan shakli bu Tyutorlik-tarbiya soatlarini tashkil etishi. Bunda talabalar bilan kam darajada bo'lsa ham an'anaviy turdagi tarbiya shakli qo'llaniladi. Rolli o'yinlar, davra suhbatlari, disputlar kabi turlari deyarlik qo'llanilmaydi. Shunday qilib, tyutorlarning ta'lim-tarbiya faoliyati tizimsiz, chegaralangan va uzlukli tarzda o'tkaziladi; tyutorlarning talabalar guruhi bilan o'zaro munosabatlarda qo'llaniladigan shakl va metodlari zamonaviy emas, an'anaviy tarzda tashkil etiladi. Bu esa mazkur faoliyatning samarasining past darajasini aniqlaydi va yoshlarni tarbiyalash jarayoni ijtimoiy-madaniy muhitning stixiyali ta'siri orqali amalga oshirilishiga olib keladi. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlar tahlili tyutorlarning amaliy faoliyatining maqsadli yo'nalishlari talabalarda pedagog kasbiga qiziqish va muhabbatni tarbiyalash, zarurli kasbiy sifatlarni, kasbiy odob-axloqni rivojlantirish, faol hayot tarzini shakllantirish va bo'lajak pedagog kasbining ijtimoiy muhimligi va kasbiy bilimlar darajasiga ma'suliyatni tushinish imkonini yaratadi.

Dunyoning aksariyat sivilizatsiyalashgan mamlakatlarida yoshlar mehnati nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishning etakchi tendentsiyalari ijtimoiy pedagogika rolining jadal o'sishini, bolalar va yoshlarning ijtimoiy ta'lim tizimini yangilash yo'llarini izlashni aks ettiradi. boshqa kasbiy, davlat-davlat ta'lim muassasalarini hayotdan, oiladan, ijtimoiy-madaniy muhitdan ajratish. Ta'limning ustuvor yo'nalishlari jamiyatdagi munosabatlar pedagogikasi, uning pedagogik yo'naltirilgan infratuzilmasini shakllantirish, oila va jamiyatning o'ziga xos imkoniyatlaridan, mikroijtimoiy muhitning madaniy, intellektual, kasbiy, ma'naviy imkoniyatlaridan to'liq foydalanishga o'tmoqda. Ta'lim va ta'lim maqsadlari uchun. Postsovet hududida yoshlar bilan ishlashning ijtimoiy-pedagogik an'analari ancha chuqur ildizlarga ega.

Odamlar o'zlari haqida ko'pincha noto'g'ri tasavvurda bo'ladilar, bu tasavvurni qurishdan halos bo'lish uchun ular o'z tajribalarini va mavjud voqelikni buzib ko'rsatadilar. Bu xuddi o'sha ziddiyat bo'lib, u kayfiyatni ham, xulq-atvorni ham, odam rivojlanishining o'zini ham belgilab beradi. Bunda sub'ekt ham har doim o'ziga-o'zi yuqori baho beravermaydi. O'zlarining xech nimaga yaramasliklarini tan olgan va shu asosda muvaffaqiyatli bo'lishi bilan bog'liq o'z tajribalarini inkor etuvchi odamlar bor. Ko'pincha shaxs uchun kutilmagan muvaffaqiyat "noqulaylik" tuyg'usini uyg'otadi va muvaffaqiyatini qadrsizlashga intilishga majbur etadi.

Tutorga qarab pedagogik faoliyatni tashkil etishning psixologik asoslaridan biri, o'quvchilarning o'zining psixologik va jismoniy holatlarini tushunish va qoniqtirishga qaratilgan bo'lishidir. Bu, o'quvchilarning o'rganishga motivatsiya qilish, o'z vaqtlarini va energiyalarini to'g'ri boshqarish, o'zlarining istaklarini tushunish, qiziqtirish va qo'llab-quvvatlash, o'quvchilarga qarshi ko'rsatilgan kuchlarni oshirish va o'quvchilarning o'zlarini rivojlantirish uchun fursatlar yaratishni o'z ichiga oladi.

Boshqacha aytganda, pedagogik faoliyatni tashkil etishning psixologik asoslaridan biri ham o'quvchilarga samarali va samimiy o'qitish uslubini ishlatishdir. O'qituvchilar o'quvchilarni qonuniy tartibga rioya qilish, ularning qiyinchiliklarini tushunish, ularga yordam berish va ularning o'zlarini rivojlantirish uchun o'z vaqtlaridan va energiyalaridan samimiylik bilan foydalanishlari kerak.

Boshqacha bir psixologik asos, o'quvchilarni o'z o'zini tahlil qilishga va o'zini aniqlashga imkon berishdir. O'qituvchilar o'quvchilarni o'zlarining qobiliyatlarini, qobiliyatlarini va qiyinchiliklarini tushunishlari, ularga moslashishga yordam berishlari va ularning o'zlarini o'zlashtirishga yordam berishlari kerak.

Pedagogik faoliyatni tashkil etishning boshqa psixologik asoslari ham mavjud bo'lishi mumkin, masalan, o'quvchilarning motivatsiya darajasini oshirish, ularga tushuntirish va qo'llab-quvvatlash, o'quvchilarning o'zlariga ishonishni rivojlantirish, o'quvchilarning iste'dodlarini va erkinliklarini oshirish, o'quvchilarni o'zlashtirish uchun shaxsiy rivojlanish yo'llarini taqdim etish, o'quvchilarning o'zlarini qadrlash uchun to'g'ri va samarali baholash usullarini ishlatish.

Bu faoliyatning psixologik asoslari faqat o'quvchilar uchun emas, o'qituvchilar uchun ham muhimdir. O'qituvchilar o'quvchilarning o'zlarini tushunish va ularga moslashishni tushunishlari, ularning motivatsiyalarini oshirish va o'quvchilarning o'zlarini o'zlashtirishlariga yordam berishlari kerak. Bu asoslarni amalga oshirish uchun o'qituvchilar

o'zlarini rivojlantirish va o'zlarining qobiliyatlarini oshirish uchun ham o'zlarini o'zlashtirishlari kerak.

### References:

1. U. Mahkamov, D Mahkamov, N Mahkamova, D. Ismoilova Tyutor pedagogik faoliyatini tashkil etish. Toshkent – 2022. “Zebo Print” 79-80
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/ta-lim-jarayonida-tyutor-va-talaba-hamkorligining-psixologik-aspektlari>
3. [pedagoglar.uz](http://pedagoglar.uz)
4. <https://econferenceseries.com/index.php/icmsss/article/download/2459/2401>
5. Toshpo'latov Abdulaziz Quvondiq o'g'li, Ummatova Zamira Atamuradovna. (2023). IJTIMOIIY TARMOQLARIDA "OMMAVIY MADANIYATGA" QARSHI KURASHISHNING DIDAKTIK VOSITALARI. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION, 2(4), 27–29. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7869831>



INNOVATIVE  
ACADEMY